

## BEHI URUG'I ASOSIDA TERINI OZIQLANTIRUVCHI KREM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Haydarova N. P<sup>1</sup>, Turayeva S. S<sup>2</sup>

1. Samarqand sh. Zarmed Universiteti farmatsiya fakulteti 105-guruh talabasi.
2. Samarqand sh. Zarmed Universiteti Klinik oldi fanlar kafedraasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda butun dunyoda farmatsiya sohasi keng rivojlanib, ommalashib bormoqda. Bu esa bevosita insonlarda ham dori mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni yanada oshirmoqda. Ushbu tezida sog'ligimizdagi muammolarni tabiiy mahsulot yordamida davolash haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tezida behining foydali xususiyatlari va uning kosmetologiyada qolaversa organizmdagi turli xildagi kasalliklarga davosi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** behi urug'i, lanolin, krem, texnologiya, husunbuzar, teri, oziqlantiruvchi.

Abu Ali Ibn Sino ham o'zining Tib qonunlari asarida tabiatdagi turli mahsulotlarni foydali xususiyatlari va kasalliklarga davosi haqida ma'lumotlar asosida keltirib o'tgan. Bizni ko'z oldimizda shunday mahsulotlar borki ularni tarkibi juda ko'p kasalliklarga davo bo'la oladi. Ana shunday mahsulotlardan biri bu – behidir [1].

Dastlab behi qadimgi Yunonistonda yetishtirilgan bo'lib, u sevgi va unumdorlik ramzi hisoblanishi bilan birga "oltin olma" nomini olgan. Behi – 6 metrgacha o'sadigan daraxt yoki buta. O'zining foydali salohiyatiga ko'ra, behining foydalari noyobdir, chunki u inson tanasining barcha tizimlariga kuchli shifobaxsh ta'sir qila oladi [2].

Meva, urug' va barglarning juda boy kimyoviy tarkibi ularning shifobaxsh xususiyatlarini yaqqol tushuntirib beradi. Behini doimiy iste'mol qilish tanani deyarli barcha kerakli moddalar bilan ta'minlaydi.

Behi tarkibida mavjud bo'lgan yuqori darajadagi antioksidantlar va vitaminlar terini sog'lom va yoshligini saqlab qolishga katta foyda beradi. Antioksidantlar erkin radikallar tomonidan yetkazilgan zararni tiklab beradi va shu bilab birga ajinlar ko'rinishini kamaytiradi, teridagi qora dog'larni kamaytiradi. Uni ultrabinafsha nurlaridan himoya qiladi. Shuning uchun ham behi kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Undan niqoblar, losyonlar, skrab va boshqalar tayyorlanadi. Behi urug'ining qaynatmasidan terini yumshatuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin [3].

**Ilmiy ishning maqsadi:** Ushbu ilmiy ishning maqsadi- yuzdagi husunbuzarlarga qarshi, yuzni oziqlantiruvchi va qarish jarayonini sekinlashtiruvchi krem texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija:** 30 gr behi urug'lari tarkibidagi sliz moddalarini ajratib olish uchun suv bilan ishlov berildi. Ajratib olingan behi urug'i shilimshig'i (sliz moddasi) asos sifatida olingan lanolin bilan to krem hosil bo'lguncha aralashtirildi. Buning uchun 70 g lanolin suv bug'ida eritilib, unga ajratib olingan gelsimon aralashma quyilib, bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirildi. Turg'unligini ta'minlash maqsadida nipagin moddasi qo'shildi.

**Xulosa:** Tadqiqot natijasida oq rangli, o'ziga xos hidli krem hosil bo'ldi. Asos sifatida lanolindan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. No'monova G.A "Behining foydali xususiyatlarini kimyoviy tarkibiga bog'liqligi", xorijiy konferensiya material; 113-117 b.
2. <https://avitsenna.uz> „ Tabiat gavhari – behi – Dorivor ne'matlar ”
3. <https://odam.uz> „ Behi mevasining foydali hususiyatlari ”